



SON BILAN IFODALANGAN QASHQADARYO TOPONIMLARI

Quyanov Samandar Sayliyevich
Erkin tadqiqotchi

***Annotatsiya.** Mazkur maqola Qashqadaryo viloyatidagi son bilan ifodalangan joy nomlarning leksik-semantik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, uning asosiy maqsadi – viloyatdagi joy nomlarining lug'aviy va semantik jihatdan o'rganilishi, ularning kelib chiqishi, ma'nosi va tarixiy rivojlanishini aniqlashdir. Maqolada toponimlarning tabiiy, ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstlarda qanday shakllanganligi tahlil qilinadi. Qashqadaryo viloyati toponimlari, ko'pincha turkiy, fors-tojik va boshqa madaniyatlarning ta'sirida yaratilgan bo'lib, ular hududdagi iqtisodiy, ijtimoiy va diniy o'zgarishlarni aks ettiradi. Tadqiqot davomida joy nomlarining etimologiyasi va ma'no o'zgarishlari, ularning tarixiy manbalar va xalqning madaniy an'analariga qanday bog'liqligi ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** toponimlar, leksik tahlil, semantik analiz, etimologiya, tarixiy manbalar, madaniy meros, joy nomlari, tilshunoslik, geografiya.*

Toponimlar – bu insoniyatning eng qadimiy madaniy va lingvistik yodgorliklaridan biri bo'lib, geografik obyektlarni nomlashda yaratilgan va tarixiy, madaniy o'zgarishlarni aks ettiruvchi maxsus atamalardir. O'zbekistonning turli mintaqalaridagi toponimlar, shu jumladan, Qashqadaryo viloyatidagi joy nomlari, hududning tabiati, ijtimoiy hayoti va tarixiy jarayonlarini aks ettiradi. Qashqadaryo viloyati, o'zining qadimiy tarixiy merosi va turli madaniyatlarning kesishgan nuqtasi sifatida, toponimlar orqali nafaqat geografik, balki ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni o'rganish imkonini beradi.

Qashqadaryo toponimlari, ko'pincha turli tillardan olingan, tarixiy shaxslar, voqealar, tabiiy obyektlar va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, ularning ma'nosi va kelib chiqishi hududning rivojlanishi, aholisining yashash tarzini, iqtisodiy faoliyatini va dinini aks ettiradi. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatidagi toponimlarning leksik va semantik tahlili amalga oshiriladi. Bunda, toponimlarning lug'aviy va ma'nodagi o'zgarishlari, ularning etimologiyasi va semantik kontekstlari o'rganiladi. Shuningdek, toponimlar orqali viloyatning tarixiy va madaniy merosiga oid yangi tafsilotlar ochishga intilamiz.

Qashqadaryo toponimlarining leksik-semantik tadqiqi, nafaqat tilshunoslik, balki tarixshunoslik, etnografiya va madaniyatshunoslik sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqot, joy nomlarining o'zgarishlarini, ularning ma'nolaridagi o'zgarishlarni va o'tmishdan bugungacha bo'lgan jarayonlarni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining toponimlari orqali o'zbek xalqining madaniy va til merosi haqida yangi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin.



Quyidagi misollar orqali Qashqadaryo viloyatidagi besh soʻzi bilan boshlangan toponimlarning leksik va semantik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning kelib chiqishi, maʼnosi va tarixiy rivojlanishini aniqlashga harakat qilamiz. Bu tahlil, joy nomlarining oʻziga xosligini, ularning hududdagi tarixiy va madaniy jarayonlarga bogʻliqligini koʻrsatishga yordam beradi.

BESHARIQ – *bir necha t. ariq, joy.*

Anhor yoki uzani kengroq, tubi chuqurroq, notabiiy suv yoʻlidan besh (yoki undan koʻp, baʼzan oz) ariqqa boʻlingan band quyisidagi joy, suv oqar joy – Beshariq.

BESHBEK – *Shahrisab tumanidagi qishloq.*

Xalq izohiga koʻra beshta bek, beshta oʻgʻil tashkil qilgan qishloq. Qozoq tilida pishpek – balandlik, tepalari koʻp joy. Oʻzbek tili oʻtmishiga oid pishpek soʻzining oʻzgargan shakli – beshbek, yaʼni yonma-yon joylashgan tepalari koʻp boʻlgan joydagi qishloq.

BESHBOLA – *Yakkabogʻ tumanidagi qishloq.*

Xalqona izoh: besh boʻla (xolavachchalar) ning qishlogʻi; besh bola (yigit, oila) tashkil qilgan qishloq. Beshbola – urugʻ nomi, qoʻngʻirotliklarning oyinni boʻlimiga xos urugʻlardan biri. 19-asr oxirida Zarafshon vodiysidagi qoraqalpoqlarning ham beshbola urugʻi boʻlgan (88-99). Surxondaryo turkmanjuzlarining, Fargʻona qipchoqlarining, Zarafshon sariq qipchoqlarining beshbola urugʻi borligi aniqlangan (206-132;79-97).

Beshbola – Qashqadaryo qatagʻonlari va saroylarning urugʻi. Etnonim qishloq nomiga oʻtgan. Aholining etnik tarkibi inobatga olinib, qishloq nomlangan.

BESHBULOQ – *Dehqonobod tumanidagi shaharcha (2009).*

Yonma-yon besh va undan koʻproq miqdordagi bulogʻi boʻlgan joy va shu hududga yaqin yerda boʻlgan qishloq – Beshbuloq. Buloqlarning jayolashuvi zich va koʻp sonli boʻlganligi bois shu nom bilan atalgan.

BESHKAL – *Qamashi/Kitob tumalaridagi qishloq.*

Mangʻit, yuz/uz va oʻzbeklashgan arablarning urugʻ tarmogʻi – beshkal (217-6,594;79-113). Urugʻ tarmogʻi asosida qishloq nomlangan.

BESHKALTAK – *Kitob tumanidagi qishloq.*

Qoʻngʻirotlar qushtamgʻali boʻlimiga mansub kal urugʻining bir tarmogʻi – beshkaltak. Kenagaslarning ham beshkaltak urugʻi boʻlgan. Janubiy Tojikiston Qatagʻanlarining qorakaltak urugʻi bor (79-105). Akademik K.Shoniyozovning tadqiqiga koʻra, beshkaltak qipchoqlariga xos urugʻi boʻlib, kishi laqabi asosida paydo boʻlgan (206-300). Etnik mansublik qishloq nomi yaralishiga asos boʻlgan.



BESHKAPA – *Qamashi/Shahrisabz/Koson/Yakkabog‘ tumanlaridagi qishloq.* Tarkibi: besh+kappa. Kapa – vaqtinchalik turish, yashash uchun qilingan boshpana. Kech bahor, yoz va erta kuzda yashash uchun qilingan vaqtinchalik boshpanalar ko‘p qilinga joyda bunyod etilgan qishloq – Beshkapa.

BESHKO‘SA – *Chiroq tumanidagi guzar, Kasbi tumanidagi mahalla.*

Ko‘sa o‘zbek xalqi tarkibiga kirga bir necha qabila, urug‘larga mansub urug‘ tarmog‘i. Qashqa-Surxon qo‘ng‘irotlarining ochamayli, maydato‘da urug‘larining bir tarmog‘i – beshko‘sa. Qo‘ng‘irotlarning qo‘shamg‘ali bo‘limidagi urug‘ nomi – beshko‘sa. Surxondaryo turkmanjuzlarining jilontamg‘ali bo‘limida ko‘sa urug‘ining tarmog‘i (79-90, 91, 93). Urug‘ tarmog‘i nomi, mahalla nomiga aylangan.

BESHMACHIT – *Koson tumanidagi qishloq.*

Machit arabcha masjid so‘zining xalq nutqidagi talaffuz shakli, ma‘nosi – jam bo‘lib namoz o‘qiladigan joy, ibodatxona. Namoz o‘qiladigan beshta machit bo‘lgan joydagi qishloq – Beshmachit. Boshqa izoh: pesh+i+machit – machitning old tomonidagi qishloq. Shu izoh asosliroq. Bir qishloqda beshta machitning bo‘lishi – nohaqiqiy; qishloqning bitta machiti bo‘lgan.

BESHNOVA – *Qarshi shahri, Xudoyzot mah/guzar.*

Tarkibi: besh+nova. Besh so‘zi joy nomlarida, turg‘un birikmalarda, xalq maqollari va ibora (ko‘chma ma‘noli birikma)larda, urf-odatlarini bildiruvchi tushunchalar nomida aniq miqdorni emas, ko‘p, mo‘l, to‘rt-beshta yoki undan ortiq kabi ma‘nolarni bildiradi. Nova – suvni bir joydan boshqa joyga o‘tkazish uchun yog‘och, quvur, ganch, sopol, metal va boshqa ashyolardan qilingan moslama, nov.

Beshta yoki undan ortiq suv o‘tkazish moslamasi, nov qo‘yilgan joy – Beshnova.

BESHTANOB – *Qarshi shahri, Kamandi mah/guzar.*

Tarkibi: besh+tanob. Tanob (a) – yer o‘lchash, chiziq tortish kabi ishlarda ishlatiladigan uzun ingichka chilvir, reja ip. O‘tmishda yer o‘lchov birligining nomi tanob deb atalgan. O‘lchov birligining hajmi, miqdori turli joylarda turlicha bo‘lgan. 15 sotixdan 50 sotixgacha bo‘lgan maydon bir tanob hisoblangan. Ana shunday hajmdagi yerning besh hissasi – besh tanob. Kamandi anhuri yonidagi yerlar uzoq o‘tmishda sug‘orib dehqonchilik qilingan. Beshtanob – taxminan 2 gektarga yaqin miqdordagi yer.

BESHTERAK – *Kitob tumanidagi shaharcha (2009).*

Beshta terak daraxti yonma-yon osgan joydagi qishloq deb izoh berishadi. Bu – xalq izohi. Terak so‘zining qadimiy shakli – darak. Ma‘nosi – ariq, anhorning bir necha ariqchalarga bo‘linadigan joyi, band. Beshterak Beshdarak – katta ariqning



beshta ariqqa bo'linadigan joyi, besh band. Ana shunday suv havzasi yonidagi qishloq – Beshterak.

BESHTUT – *Kitob tumanidagi qishloq.*

Joy nomlari tarkibidagi besh so'zi uch va undan ko'p miqdorni anglatadi; bir necha, to'rt-besh. Tut – ipak qurti uchun yemish bo'ladigan bargli va oq, qora, qizil tusli yumshoq meva beradigan, kam suv talab qiladigan daraxt. Besh tut – besh yoki uchdan ortiq tut daraxti bo'lgan joydagi qishloq.

BESHCHASHMA – *Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi.*

Besh – son jihatidan ko'p, bir qancha. Chashma (f-t) – yer osti suvlari bir joydan sizib yoki qaynab chiqadigan kichik havza, buloq. Beshta yoki undan ko'p buloqli joydagi qishloq – Beshchashma.

BESHO'CHOQ – *Qamashi, Dehqonobod tumanlaridagi qishloq.*

Tarkibi: besh+o'choq. Chorvadorlarning, ko'chmanchi aholining yaylovda yozgi yashashi uchun yer yuzasidan, sal balandroq joydan qazilib, usti cho'p, yog'och va xas-xashak bilan yopilgan vaqtinchalik makoni, yerto'lasimon boshpana – o'choq.

Ko'p yoki bir necha yerto'lasi yoxud yerto'lasimon boshpanasi bo'lgan joydagi qishloq – Besho'choq.

BESHO'G'IL – *Yakkabog' tumanidagi qishloq.*

Qashqa-Surxon vohasi qo'ng'irotlari voxtamgali bo'limiga qarshli bolgali urug'ining bir tarmog'i – besho'g'il (79-90). O'gil/ogil/ool/uul/ul so'zli etnonimlar bir necha turkiy xalqlarga xos: qirg'izlarning tog'ay qabilasi urug'i – jetti uul qirg'izlarning bugu qabilasi urug'i – otuzuul, qirg'izlarda kirkuul, jumash uulu urug'i ham bor (10-33, 54). Tojikiston laqaylarida ucho'g'il degan urug' borligi ma'lum (79-101). Etnonimlar tarkibida o'g'il so'zi bola, farzand, avlod, bo'g'in, urug', qabila ma'nolarini bildirgan. Qo'ng'irotlarning besho'g'il kichik urug' nomi qishloq nomiga aylangan.

BESHQIZ – *bir necha tumanlarda tepa/balandlik.*

Joy nomlari tizimida besh so'zi aniq besh raqami va ko'p bir qancha ma'noni bildirishga maxsuslangan. Quz/qiz – ust qismi tik toshtepasimon balandlik. Shahar xarobalari o'rnidagi qo'rg'on burjlari, minora qoldiqlari ham qiz so'zi bilan yuritilgan. Yonma-yon beshta va undan ko'p tepalari bo'lgan balandlik – Beshqiz.

BESHQOZOQ – *Kitob tumanidagi shaharcha (2009).*

Shaharcha aholisi qozoq xalqiga mansub beshta odam kelib, yerni o'zlashtirib, obod qilib qishloq tashkil qilganligi bois Beshqozoq atalgan deyishadi. Bu – xalq izohi. Qozoq xalqi va o'zbeklarning qozoq urug'iga bu nomning dahlia yo'q. Qadimgi turkiy tilda qazuq ariq – qazilgan ariq. Qazuq so'zining o'zgargani – qozoq.



Katta anhordan beshta kichik ariq (qazuq – qozoq)qa bo‘lingan band yonidagi shaharcha – Beshqozoq. Beshariq nomiga ma’nodosh.

BESHQO‘RG‘ON – *Dehqonobod/Qamashi tumanidagi qishloq.*

Mahalliy aholi past so‘zi o‘zgarib besh shakliga o‘tgan: pastdagi qo‘rg‘on deb izohlaydi. Besh so‘zining ko‘p ma’nosidan tashqari qadimiy ma’nosi ham bo‘lgan: qadimiy qo‘rg‘on, yonidagi qo‘rg‘onlardan oldin qurilgan qo‘rg‘on: ko‘p qo‘rg‘onli qishloq. Boshqa bir izoh: fors-tojikcha pesh (yuqori, baland) qo‘rg‘on – yuqori tomondagi istehkom, yuqori qo‘rg‘on.

BESHQO‘TON – *Dehqonobod tumanidagi qishloq.*

Tarkibi: besh+qo‘ton. Joy nomlari tizimida besh so‘zi beshta raqamni, ko‘pincha besh va undan ortiq miqdor, ko‘p, bir necha ma’nolarni bildirgan. Qo‘ton – qoramol yoki qo‘y, echkilar qamalidan ko‘ra, molxona, qo‘yxona. Bahor, yoz va erta kuzda qoramol, qo‘y-echkilar tushda, oqshom yotqiziladigan shamolgoh joy ham – qo‘ton, vaqtinchalik qarorgoh. Yonma-yon joylashgan kichik, pastkam balandliklar va maxsus joylar qo‘ton vazifasini bajargan, ular tez-tez o‘zgartirilib, almashtirilib turilgan. Bir yilda bir necha yozgi qo‘tondan foydalanilgan. Ana shunday muvaqqat qarorgohlarning bir nechasi bo‘lgan joy atrofidagi qishloq – Beshqo‘ton.

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqola, Qashqadaryo viloyatidagi toponimlarning leksik va semantik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, viloyatdagi joy nomlarining kelib chiqishi, ma’nosi, etimologiyasi va tarixiy rivojlanishini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda ayniqsa “besh” so‘zi bilan boshlangan toponimlarning leksik va semantik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu joy nomlari, ko‘pincha turkiy, fors-tojik va boshqa madaniyatlarning ta’sirida shakllangan bo‘lib, ular Qashqadaryo viloyatining tabiati, ijtimoiy hayoti va tarixiy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Maqolada tahlil qilingan toponimlar, nafaqat hududning geografik o‘ziga xosligini, balki uning iqtisodiy, ijtimoiy va diniy hayotini aks ettiradi. Qashqadaryo viloyati joy nomlari, o‘zining tarixiy va madaniy merosiga oid muhim ma’lumotlarni o‘zida mujassam etib, hududning turli davrlarda o‘tgan o‘zgarishlarini va aholisining turmush tarzini yoritadi. Maqolada har bir toponimning etimologiyasi, ma’nosi, tarixiy manbalari va xalq madaniyatiga bog‘liqligi ko‘rib chiqilgan.

Qashqadaryo viloyatidagi “besh” so‘zi bilan boshlangan toponimlar, o‘zining lug‘aviy va semantik jihatlari bilan xalq an‘analari va madaniy qadriyatlarini aks ettirib, joy nomlarining rivojlanishidagi muhim bosqichlarni yoritadi. Bu tadqiqot, nafaqat tilshunoslik, balki tarixshunoslik, etnografiya va madaniyatshunoslik



sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Toponimlar orqali viloyatdagi tarixiy jarayonlarni, madaniy merosni va tilshunoslikda yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatlari mavjud.

Shu bilan birga, maqolada “besh” so‘zi bilan bog‘liq toponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari va bu nomlarning o‘zgarishlarini tahlil qilish orqali, joy nomlari tizimining qanday rivojlanganligi, ularning qanday madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni aks ettirganligi hamda kelajakda bu sohani yanada chuqurroq o‘rganish zarurligi ko‘rsatib berilgan. O‘zbek toponimikasi, uning tarkibiy qismlari va tarixiy rivojlanishi tilshunoslik va madaniyatshunoslikda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begmatov E., N.Uluqov. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. Namangan, 2006.
2. Karimov S.A. O‘zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. T. Fan nashr., 2006.
3. Toponimika .Suyun Qorayev .O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashr. Toshkent – 2006.
4. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir. 2009.
5. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. Toshkent ,1998.
6. Oxunov N. Joy nomlari ta‘biri. Toshkent, 1994.